



**BADIIY ASARLARNING PSIXOLOGIK TAHLILI VA UNING
AHAMIYATI**

Maxammadanjonova Nilufar Muydinjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 4-kurs talabasi

mkhmmdjvnlf@icloud.com

Xolikova Nafosat Shermuhammad qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 4-kurs talabasi

xolikovanafosat700@gmail.com

Aminova Sohila Abduhalimovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

aminovasohila@gmail.com

ANNOTATSIYA. *Ushbu maqolada badiiy asalarning psixologik tahlili va uning ahamiyati haqida ma'lumotlar beriladi. Dunyo adabiyotining ilg'or namoyandalari ijod laboratoriyasiga teran nazar tashlaydigan bo'lsak, shu chog'gacha yashab, asrlardan-asrlarga o'tib, ruhoniylar olamimizdagi savollarga javob bo'lgulik adabiy merosning fazilatlarini haqida so'z yuritganda, avvalo, inson psixikasini, xarakterini to'laqonli ochib berishi, obrazlilikni jiddiy ishlashi natijasi ekanligi ayonlashadi. Obrazli tafakkur - ruhiy tafakkurdan oziqlanadi. Ruhiy tafakkur - insonning "men"ida shakllanadi.*

Kalit so'zlar: *Adabiyot, badiiy asarlar, psixologik, ilg'or namoyondalar, ruhiy tahlillar, psixik xarakter, obrazlilik, adabiy meros, ijod laboratoriyasi, teran nazar.*

ABSTRACT. *This article provides information on the psychological analysis of artistic works and their significance. If we take a closer look at the laboratory of creativity of the leading figures of world literature, it becomes clear that when we talk about the qualities of the literary heritage that has lived up to this time, passed through works and centuries, and answered questions in our spiritual world, it is, first of all, the result of a full disclosure of the human psyche and character, and the*



serious work of imagery. Figurative thinking is nourished by spiritual thinking. Spiritual thinking is formed in the "I" of a person.

Keywords: Literature, works of art, psychological, leading figures, spiritual analysis, psychic character, imagery, literary heritage, laboratory of creativity, deep look.

АБСТРАКТНЫЙ. В статье дана информация о психологическом анализе художественных произведений и его значении. Если внимательнее рассмотрим лабораторию творчества корифеев мировой литературы, то станет ясно, что когда мы говорим о качествах литературного наследия, дожившего до наших дней, прошедшего через произведения и века, ответившего на вопросы в нашем духовном мире, то это, прежде всего, результат полного раскрытия человеческой психики и характера, и серьезной работы образности. Образное мышление питается духовным мышлением. Духовное мышление формируется в «Я» человека.

Ключевые слова: Литература, произведения искусства, психологический, корифеи, духовный анализ, психический характер, образность, литературное наследие, лаборатория творчества, глубокий взгляд.

KIRISH. XX asr faqat fan-texnika asri bo'libgina qolmay, uning oxirgi choragi ayniqsa, o'zbek adabiyoti uchun inson ruhiyati, "qalb dialektikasi"ni badiiy tadqiq qilish, uning ichki va tashqi holatini sintezlashgan tarzda ifodalash asri ham bo'lib qoldi. Psixologiya, ruhiyat, ichki dunyo, ruhiy kechinma kabi so'zlar bir-biriga yaqin ma'noni anglatadigan sinonim so'zlar sifatida tushuniladi. Chunki bu so'zlarning barchasi insonning subyektiv dunyosi – idrok, xotira, tafakkur, xayol, his-tuyg'u va uning qobiliyati, iste'dodi, temperamenti, xarakteriga xos ruhiy hodisalarni ifodalaydi. "Badiiy adabiyotni ruhiy faoliyat turlaridan biri deb atashga imkon beradigan narsa shuki, ijodkor o'zining "faoliyati" yo'naltirilgan predmetni o'z ongida o'zgartiradi va badiiy obrazda aks ettiradi". Bunda asosiy masala asar mazmunining subyektiv tomoni bo'lib, adabiyot va san'atning tarixiy taraqqiyotidan keyingi o'rinlarda turadi.



ASOSIY QISM: Inson gapirmagan lahzalarda ham nimadirlarnidir o'ylab, so'zlab turgan bo'ladi, deydi buyuk mutafakkir, domishmand, hikmatlar egasi Jaloliddin Rumiy. Mana qariyb yetti yuz yildirki, muazzam Sharq G'arb badiiy-falsafiy, estetik tafakkurini, o'zining diniy-ilohiy, ma'naviy-ma'rifiy qarashlari bilan to'yintirib kelayotgan Rumiy hazratlarining butun insoniyatga yozib qoldirgan bebaho merosi haqida bosh qotirganda, bugungi real va noreal badiiy asarlar voqeligiga singib ketgan, siz va biz, umuman hammamiz haqimizdagi eng latif tuyg'ularning qalblarimizga taskin beruvchi mutafakkirona qarashlarning haqqoniyligini hamda o'lmasligidan dalolat beradi. "Psixozanaliz" meditsinaning psixiatriya va psixologiya sohalarida qo'llaniladigan yangi yo'nalish, alohida termin hisoblanadi. Unga ko'ra, insonning xatti-harakatlari va intilishlari aql va ongdan ko'ra, irratsional – ya'ni aqldan tashqari ong ostida ro'y beradigan xohish-istaklar bilan ko'proq bog'langandir. Bir qancha olim faylasuflar tomonidan Freydizm nazariyasi fanning turli sohaları – falsafa, siyosat, yuridik, san'at, ta'lim yo'nalishlariga tatbiq etishga qaratilgan. Shuningdek, tibbiyotda ruhiy bemorlarni psixozanaliz usulida muolaja qilish bilan ham shug'ullanadi.

Jahon adabiyotida psixologik tahlil metodi XIX asr 70-80-yillarida G'arbiy Yevropa va Rossiya ilmiy muhitida yuzaga keldi. Xususan, frantsuz olimi Emil Ennekin adabiy tanqidning estopsixologik tamoyillarini ilgari suradi. U badiiy matn ma'nosini idrok etishda o'quvchi psixologik jihatdan kitoblari yoqqan yozuvchiga o'xshash bo'ladi, degan g'oyani ilgari suradi. Adabiyotshunoslikda XIX asr oxiri, XX asr boshlarida "psixozanaliz" nazariyasiga asos solgan avstriyalik olim Zigmunt Freyd qarashlariga ham e'tibor ancha kuchli. "Psixozanaliz" "psixologik analiz"ning qisqartmasi emas. "Psixologik analiz" adabiyotshunoslikka xos termin bo'lib, tadqiqotchining badiiy asarni psixologik metod asosida tadqiq etishidir. Psixozanaliz nisbatan keng tushuncha hisoblanib, XX asrning 1-choragigacha bo'lgan inson va uning ruhiyati haqidagi qat'iy qarashlarni rad etdi, shaxs ruhiy olamining aqlga sig'maydigan murakkab jihatlarini farqlab berdi. Xossatan, ongli jarayonlar ortida yashirin faoliyat – ong osti psixologiyasi mavjudligini kashf etdi. "Inson faoliyatining Freydgacha bo'lgan psixologik



talqinlarida tadqiqot obyekti vazifasini asosan, ong va u bilan bog'liq jarayonlar bajarar edi. Freyd esa mana shu ongli jarayonlar ortida yashirin faoliyat mavjudligini kashf etdi va uni ong osti psixologiyasi, deb nomladi.

XULOSA. Bizning fikrimizcha, yuqorida ta'kidlangan printsiplar ham ko'proq yozuvchining uslubiga xos xususiyatlardir. Psixologik tahlilda esa "Yozuvchi – matn – o'quvchi" muammosi turar ekan, badiiy asarni psixologik jihatdan o'rganishda quyidagi tamoyillar inobatga olinishi lozim:

1. Psixologizm tabiatining murakkabligini hisobga olish; Psixologizmning etika-estetika, falsafa, ijtimoiy tarix, fiziologiya va boshqa sohalar bilan o'zaro aloqadorligi, psixologik metodning biografik, sotsiologik, struktural, germeneytik tahlil metodlari bilan bog'liqlikda o'rganish usullarini tadbiq etish.

2. Muallif, xarakter (yoki matn), o'quvchi munosabatlarining o'zaro bog'liqligi; Avvalambor, badiiy asar yaratishda muallifning niyati, asarning ramziy ma'nosi, muallif qanday shakl va vositalar asosida qahramon shaxsini yaxlit idrok etishga erishishi mumkin, asarning asosiy ziddiyatlari – konflikt holatlari, psixologik muhit - byurokratlik, keskinlik, tanglik, tajovuzkorlik kabi muammolarga javob izlash. Tuyg'ular, fikrlarni muallif o'quvchiga qanday yetkazadi, qahramonning hissiyotlari va ichki kechinmalari, imo-ishoralar, fiziognomiya kabi holatlarning talqinini qahramonlar shaxsiyatida tahlil etish lozim. O'quvchi asarni o'qir ekan, o'ziga keraklicha estetik zavq oladi. Lekin tadqiqotchi muallif niyatini, asarning psixologik jarayonlarini anglamoqchi bo'lsa matnlarni amaliy tahlil qilishda faol ishtirok etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Botirova Shahlo Isomiddinovna "Noan'anaviy qissalar badiiyati" . "Renesans sari" Toshkent-2024. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Navoiy universiteti, 2018 Yo'ldoshev Q. O'zbek adabiy tanqidi: antologiya. – T.: Turon-Iqbol, 2011. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O'zbekiston, 2002. Quronov D., Z.Mamajonov, M.Sheraliev. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr, 2010. Umarov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.